





EZGU FIKR, EZGU SO'Z, EZGU AMAL!

# ILM SARCHASHMALARI


URGANCH DAVLAT UNIVERSITETINING  
ILMIY-METODIK JURNALI




Рамадона Д.  
Илмий муҳнаси




“Karavan” mehmonxonasi



“Khorezm palace” mehmonxonasi



“Fayz” mehmonxonasi



“Bahor” mehmonxonasi

ISSN 2010-6246



2019-5



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

## ILM SARCHASHMALARI

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

5.2019

научно-методический журнал  
Издаётся с 2001 года

attestatsiya komissiyasining  
FILOLOGIYA fanlari  
bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy

Urganch – 2019



## MUNDARIJA

### FIZIKA-MATEMATIKA

|                                                                                                                                           |   |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| Р.Шарипов, С.Бекчанов. Устранимые особенности $\alpha$ – субгармонических функций из классов $L_{p,loc}$ и $L^1_{p,loc}$ .....            | 3 |
| M.Karimov, R.Sabirov, B.Sa'dullayeva, K.Otaboyeva. Investigation of Defect InP(001) Structure by the Low Ion Scattering Spectroscopy..... | 8 |

### TIBBIYOT

|                                                                                                                                       |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Қ.Шукурлаев, Н.Бекова, Ш.Сафаева. Влияние нового производного тиокарбамата на болевую чувствительность и температуру тела у крыс..... | 12 |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

### FALSAFA

|                                                                                                                                  |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| С.Абдикаримова. Этноанъаналар оилани мустахкамлаш омили сифатида.....                                                            | 16 |
| Н.Эшонкулова. Шарк эвдомонистикаси.....                                                                                          | 19 |
| D.Rajabova, O.Ismomov. Tasavvufda ishq bayoni va mutasavvif alloma aziziddin nasafiy talqini.....                                | 22 |
| Т.Исмоилов. Ёшлар ҳаёт стратегиясини шакллантиришда бўш вақт ва дам олишнинг аҳамияти.....                                       | 26 |
| Г.Мамажонова. Биозтика – ахлоқий танлов ва ахлоқий масъулият мезонларини ижтимоий назорат қилишнинг институционал механизми..... | 30 |

### TARIX

|                                                                                                                             |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Х.Отегенов. Хива хонлиги ва амударё бўлимидаги 1916 йилги халқ кўзғолони тарихи манбашунослиги ва ҳужжатларни чоп этиш..... | 34 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

### TILSHUNOSLIK

|                                                                                                                               |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Ж.Ёқубов, Х.Рўзметов. Ҳозирги замон мантик илмида ҳукмнинг модаллик бўйича бўлиниши ва унинг семантик таснифлари.....         | 39 |
| Н.Омонтурдиев. Сурхондарё этнографизмлари лингвокультурологик тадқиқ кесимида....                                             | 45 |
| Б.Қўшкова. Ижтимоий омилларнинг тил ривожланишига таъсири.....                                                                | 48 |
| Р.Ахророва. Социологик ва тилшунослик тадқиқотларида “ёш” ва “ёш”га оид семантикалик лексемалар.....                          | 52 |
| M.Xolova. Boysun shevasi leksikasida uy-ro'zg'or buyumlari va oziq-ovqat nomlari.....                                         | 55 |
| X.Xolmurodova. Shaxs nomlarini ifodalovchi perifrazalarning shakllanishi.....                                                 | 59 |
| Л.Ахматова. Анализ пословиц и поговорок: лингвокультурный концепт «вино» во французском языке.....                            | 61 |
| Z.Jumaniyazov, S.Xusinova. Morphological Analysis of Paired Words and Reduplicative Words in English and Uzbek Languages..... | 64 |

### ADABIYOTSHUNOSLIK

|                                                                                                                  |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| M.Yuldasheva, L.Rajabboyeva. “Ikki eshik orasi” romanida kishilar ma’naviy qiyofasi tasviri...68                 | 68 |
| Ж.Жўраев, М.Холбеков. Саййид Ҳомид Тўра Комёб шеъриясида муаммо жанрининг қўлланиши.....                         | 71 |
| U.Xolnazarov. Tog'ay Murod asarlarida qahramon ruhiyati tasviri (“Bobosi bilan nevarasi” hikoyasi misolida)..... | 74 |

### PEDAGOGIKA

|                                                                                                                    |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Ф.Сапаева. Нофилологик таълим йўналишидаги талабалар билан “Кейс стади” технологиясида ишлашнинг афзалликлари..... | 78 |
| J.Ermetova, N.Rahimboeva. ESP: muayyan maqsadlarga ko'ra ingliz tilini o'rganish va uning ahamiyati.....           | 81 |
| Ж.Кенжаев, Н.Балтабаев, Ш.Эгамбердиева. Жисмоний тарбиянинг шахсни ҳар томонлама ривожлантиришдаги роли.....       | 83 |



лаби, ҳар бир киши ўз ўрнини топганида жамиятга фойда келтиради, ўзининг мавқеи ва ҳаётидан рози бўлади, ўзини омадли ҳисоблайди. Давлат бошқаруви кишилардаги ранг-барангликни, дифференциалликни қўллаб-қувватлаб, кишилараро муносабатларни рационал уюштиради, уларнинг фаолияти ва саъй-ҳаракатларини умумманфаатларга йўналтиради. Хитой фалсафасида бахт-саодат ҳақида турли фикрлар, ёндашувлар мавжуд. Уларнинг барчасини келтириш ва таҳлил қилиш имкони йўқ. Аммо улар ичида шундай эътиборли таълимот борки, уни таҳлил қилиш ҳозирги давр учун ҳам фойдалидир. Биз Ли Гоу (1009 – 1059 йиллар)нинг “келажакдаги ўн минг авлод бахти” деб аталган стратегик аҳамиятга эга фалсафий-сиёсий режасини назарда тутаямиз.

Ли Гоу “Давлатни бойитиш режаси” асарида халқни бахтли қилиш бошқарув тизимининг бош мақсадларидан бири, ушбу мақсадни у ҳеч қачон унутмаслиги керак, деган ғояни илгари суради. Халққа амалий наф, фойда келтирадиган фазилатларни у бахтли, фаровон яшаш омили, деб билади. Маълумки, дин, эътиқод ва ибодатхоналар амалий наф келтиришни назарда тутмайди, халқ ибодатхоналарга ўзининг маънавий-руҳий эҳтиёжларини қондириш, трансцендентга бўлган анъанавий ишончини асраш, кўрсатиш учун қатнайди. Файласуф конфуцийликнинг эътиқод даражасига кўтарилишидан, унга кўр-кўрона сажда қилишдан норози кўринади. Бундай кайфият бошқа фалсафий таълимотларда ҳам кўзга ташланади. Конфуцийликнинг хитой маънавий, руҳий ҳаётида, тарқок князликларни бирлаштиришда муҳим роль ўйнаганини унутиб бўлмайди. Унинг давлат дини сифатида қабул қилингани дин феноменига, Ли Гоунинг танқидий ёндашувига қарамай, эҳтиёжнинг юқори бўлганидан дарак беради. Биз учун муҳими шундаки, дин, эътиқод, шу жумладан, конфуцийлик ҳам, халқни бахтли қилишга тўсқинлик қилмаган, балки конфуцийлик олижаноб эр, эзгулик, муроса принципларини тарғиб қилиб, инсон билан жамият ўртасидаги уйғунликни таъминлашга интилдилар. Уларнинг назарида, киши жамият билан бирга, уларнинг ичида бахтли бўлиши мумкин. Жамиятга қарши турган шахс таназзулга учрайди, у ҳеч қачон эл-юрт бахтли санайдиган субъектга айлана олмайди.

Булардан келиб чиқиб, Шарқ эвдемонистикаси ижтимоий-этикавий ғоялар билан уйғунлашган, унда инсоннинг маънавий-ахлоқий камолоти марказий ўринда туради, дейиш мумкин.

Dilnoza Rajabova, Otabek Imomov (Buxoro davlat universiteti)

## TASAVVUFDA ISHQ BAYONI VA MUTASAVVIF ALLOMA AZIZIDDIN NASAFIY TALQINI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tasavvufdagi yuksak Ishq maqomi haqida fikr yuritilib, Aziziddin ibn Muhammad Nasafiyning ham bu boradagi qarashlariga alohida to'xtalib o'tiladi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается идея и статус высокой Любви по учению «Тасаввуф», также приведены мнения Азизиддина ибн Мухаммада Насафий по данному вопросу.

**Annotation.** In the given article, the speech goes on about love – high motive in Sufism and the views of Aziziddin ibn Muhammed Nasafi in this regard were separately touched.

**Kalit soʻzlar:** ishq, ruh, Haq, yoʻl, koʻngil, dunyoqarash, komil inson, uruj (yuksak maqom), tasavvuf.

**Ключевые слова:** любовь, дух, бог, путь, душа, мировоззрение, совершенный человек (комил инсон), высокий мотив (уруж), учение в суфизме (тасаввуф).

**Key words:** love, soul, God, way, heart, outlook, a perfect man, higher motivation (uruj), Sufism.

Oʻrta Osiyoda tasavvuf fani rivoji islom dini tarqalganidan keyingi davrga toʻgʻri kelib, undagi qarashlar va yondashuvlar ham borliq va din bilan uygʻunlashib ketgan.



Ishq tushunchasi tasavvufda husni Mutlaqqa bo'lgan shiddatli sevgi. Vahdati vujudning boshlang'ichi va oxiri bo'lmaganidek, Haq tajalliysi, zuhurrotining ham ibtido va intihosi yo'qdir. Ilohiy zot har joyda, har doim zohirdir Haqning ilk zuhuriga "Haqiqati Muhammadiya" deyilar. Bizda bo'lgan ishq ilohiy lutf, rahmoniy qudrat bilan ato etiladi. Ollohga nisbatan ishq tuyg'usi har bir Ruh sohibiga xos.

Tasavvufda ishq istilohi ikki xil ma'noda qo'llaniladi: haqiqiy va majoziy. Haqiqiy ishq husni Mutlaqqa, majoziy ishq esa olam va olam go'zalligiga oshiqlikdan iborat. Muhabbat-sevgi, mehr, yaqinlik va sadoqat hissi.<sup>1</sup> Muhabbat ishqning martabalaridan biri, ya'ni sevimlisiga munosib, loyiq bo'lish uchun yomon illatlardan qutulib, poklanib, unga yaqinlashishga intilish.

Sharq madaniyatining tasavvufiy ilmlarini islom, falsafa va nazm doirasida qorishiq rivojlanganligini kuzatish mumkin bo'lgani kabi, unda qiyosning maxsus ramziy ishoralaridan ham keng foydalanilganligining guvohi bo'lamiz.

Masalan, Xudoning "Yor" deb nomlanishi, ma'shuqaga ehtiros bilan intilish esa taqvodorcharcha g'ayrat ishtiyoqni belgilashi, sharobdan mast bo'lish xudo yoki haqiqatni bilish jarayonida o'zini yo'qotish darajasi, ekstazga yetish sifatida talqin qilinishi mumkin edi.<sup>2</sup> Tasavvuf tariqatlarining barchasi xudoni sevish komillikning eng yuksak maqomi – uruj deb e'tirof etadilar. Masalan, al-G'azzoliy yozadi:

*"Eshigingdan uzoqqa bo'lolmayman men,  
Umidsiz chang bosib yotolmayman men,  
Qarol emasman, lek ostonangda egdim boshi mni!  
Muhabbatsiz bo'l desang – bo'lolmayman men!"*<sup>3</sup>

Tasavvufda ishq, oshiq, ma'shuq tushunchalari asosiy bo'lib, oshiq va ma'shuqlik holati fano va baqo holati orqali tavsif etiladi. Movarounnahr tariqatlarining negizida haqiqiy ishq insonning o'zligini anglashi asosini ifoda etadi. Ya'ni, ishq kutilmaganda qalbni makon etar ekan, endi oshiq ma'shuqaga yetmoq uchun zohiri va botinini qusurlardan forig' etishga kirishadi. Muhabbatining iztiroblari esa zohidni ezgulikka – Haqqa sari yetaklaydi. Etti Pir ijodida ham biz ilohiy Ishq tarannumini ko'ramiz. Abduholiq G'ijduvoniyaning quyidagi ruboiy saqlanganini Tohir Eshon "Tazkirayi Naqshbandiya" asarida yozadi:

*Jon, labam az zikri tu xomush mabod,  
Yodi tu zi xotiram faromush mabod.  
Har jo zi shamoyilat hadise go'yand,  
Zarroti vujudi manba jo'z go'sh mabod.*<sup>4</sup>  
Mazmuni:  
*Jonim, labim sening zikringdan to'xtamasin,  
Sening yoding xotiramdan aslo o'chmasin.  
Qayerda sening shamoyiling haqi da so'z ketsa,  
Butun vujudim zarralari quloqqa aylanadi.*

Naqshband konsepsiyasida o'z-o'zini bilish, o'z mohiyatining o'rnini, mavqeyini, haqiqiy ma'naviy asosini aniqlashga alohida e'tibor qaratgan: "Har doim, har joyda, kim bilan bo'lmasang, har qanday sharoitlar, holatlarda qalbning nigohini sevikli Yorga (Mutlaq Ruhga) qaratgan". Bu g'oya Jomiy konsepsiyasida munosib ravishda davom ettirilgan, ya'ni inson o'zining boshlang'ich asosi, sababi haqiqiy Abadiy Borlig'i – Xudoning Borlig'ini anglab boradi.

Jomiy va Navoiy naqshbandiya tariqati tarafdori bo'lganliklari uchun, tabiiyki, ularning dunyoqarashi, insonga munosabati Naqshband g'oyalari bilan sug'orilgan. Jomiy quyidagi hikoyani keltiradi:

"Savol berdilar:

<sup>1</sup> Komilov N. Tasavvuf. T., "Movarounnahr", 2009, 64-bet.

<sup>2</sup> Арипов М.К. Гуманизм Алишера Навои. Ташкент, 1991, с. 67.

<sup>3</sup> Аль-Газзали. Воскрешение наук о вере. М., 1986, с. 230.

<sup>4</sup> Xo'ja Abduholiq G'ijduvoni, M.Hasaniy. T., "O'zbekiston", 2003, 54-bet.



– Kimni kamtarin odam deb aytasiz?

U javob berdi:

– Ilohiy haqiqatdan qoʻrqib va uning marhamatiga umid bogʻlab, unga sajda qiluvchi odamni.

Unga yana savol berdilar:

– Nega sen unga bosh egasan?

U javob berdi:

– Muhabbat sababli – muhabbat meni ilohiy haqiqatga xizmat qilish uchun va unga sajda qilishga majbur qiladi”.<sup>1</sup>

Alisher Navoiy ilmiy merosida ishqning yana bir yangi jilosidan bahramand boʻlamiz. U zot ishq martabasi borligiga va uning uch qismdan iborat ekanligini aytadi. Avvalki qism – avom ishqidur, deydi Navoiy. Ikkinchi qism xavos ishqidur. “Ul pok koʻzni pok nazar bilan pok yuzga solmoqdur va pok koʻngil ul pok yuzni oshubidin qoʻzgʻolmoq va bupok mazhar vositasi bilan oshiqi pokvoz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq”.

Bunday ishq sohiblariga Navoiy Xusrav Dehlaviy, Shayx Iroqiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiylarni tasfiy etgan. Uchinchi qism “siddiq”lar ishqidurkim, alar Haqning tajalliyoti jamoliga mazohir vositasidan ayru va magʻlublardir”.<sup>2</sup> Yaʼni, ishq dardiga muhtalo boʻlgan oshiqqa oʻzganing xabarini bermoq unga zulm etmoqlik bilan barobardir. Demak, haqiqiy oshiq Haqqa sari poklanib borayotgan komil insondir.

Komillik haqida fikr borar ekan, oʻrta asrlarning yana bir yoqin mutasavvif olimi Aziziddin Nasafiy (1220–1305) va uning ilmiy merosi haqida toʻxtalib oʻtishni joiz deb topdim. Shayx Najmiddin Kubro va Ibn al-Arabiy taʼlimotlarini oʻzaro bogʻlagan kubroviya tariqati davomchilaridan boʻlmish Aziziddin ibn Muhammad an-Nasafiyning “Al-inson al-komil” (“Komil inson”), “Manozil us-soyirin” (“Yoʻlovchilar qoʻnalgʻasi”), “Maqsad ul-aqso” (“Soʻnggi maqsad”), “Kashf ul-haqoyiq” (“Haqiqatlarning yaralishi”), “Zubdat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar qaymogʻi”), “Usul va furu” (“Ildizlar va butoqlar”), “Mabdaʼ va maʼod” (“Chiqish va qaytish”), “Miftoh ul-asror” (“Sirlar kaliti”), “Nafsi insoniy”, “Vahdati vujud” va boshqa kitoblari chet ellarda chop etilgan.

Aziziddin Nasafiy “Ishq” bayonida zikr ahlini toʻrt martabaga boʻladi: “birinchi martaba – moyillik, ikkinchisi – irodat, uchinchisi – muhabbat va oxirgisi – ishq maqomidir. Tasavvuf aholidan kimgaki uruj (yuksak maqom) muyassar boʻlsa, toʻrtinchi martabaga yetgan boʻladi. Zokir toʻrtinchi martabani egallamaguncha, ruhiga uruj muyassar boʻlmas.

*Ishq omadu shud chu xunam andar ragu poʻst,*

*To kard maro tihivu pur soxt zi Doʻst.*

*Ajzoi vujudi man hama Doʻst girift,*

*Nomest zi man bar manu boqi hama Oʻst.*

Maʼnosi:

*Ishq keldi, qon kabi vujudimga singdi.*

*Meni menlikdan mosuvo qilib, Doʻstga band etar.*

*Butun vujudimni Doʻst egallab oldi.*

*Menda menlikdan faqat nom qoldi, qolgani Udir.*<sup>3</sup>

“Ey darvesh! Ishq soliklar buroqi (uchqur ot) va tariqat ahlining ulovidir. Aql ellik yilda toʻplagan narsaga Ishq bir lahzada oʻt qoʻyar va oshiqni pok va musaffo etar. Oshiq bir lahzada erishganiga solik yuz bor chilla oʻtirib ham erisholmas. Boisi, oqil – dunyodadir, oshiq – oxiratda. Oqilning nazari Oshiq sayrining qadamiga etmas”.<sup>4</sup> Adib oshiqning holini bayon etar ekan,

<sup>1</sup> A. Jomiy. Bahoriston. Dushanbe, 1964, 44-bet.

<sup>2</sup> A. Navoiy. Mahbub ul-qulub, Mukammal asarlar toʻplami. 14-tom, “Fan”, 65-bet.

<sup>3</sup> A. Nasafiy. “Komil inson” kitobidan. Olim Davlat tarjimai. Yettinchi risola, 1-fasl, www.kh-davron.uz

<sup>4</sup> Oʻsha manba, davomi.



ishq kutilmaganda nasib etishini, oshiqlikka tayyorganlik bilan muyassar bo'lib bo'lmasligini izohlaydi.

Keyingi o'rinda Aziziddin Nasafiyning Alisher Navoiy fikrlariga yaqinlik kuzatiladi, ya'ni, mutasavvif ham majoziy ishq egalarini quyidagi uch martabaga bo'ladi: "Avvalida oshiq mudom o'z ma'shuqasi yodida bo'lib, uning ko'yida ovora yurar; dilbarining uyi uning qiblasiga bo'lib, har kuni uni tavof qiladi; shoyadki uzoqdan esa-da jamolini bir ko'rarman, deya ma'shuqasining eshigini devorini poylar. Ma'shuqaning uyi ziyoratidan majruh dili rohat topar – bu dilning jarohatlariga malham bo'lar.

O'rtada shunday hol yuz berarki, ma'shuqasi diydoriga toqati qolmas. Mabodo, uni ko'rib qolsa, butun vujudiga larza tushib, tili kalimaga kelmas. Hushidan ketib, yiqilib qolishi-da, hech gapmas.

Ey darvesh! Ishq bir o'tdirki, oshiq vujudiga tushar; bu o'tning makoni ko'ngildir. Ko'ngilga bu o't nazar yo'lidan kelar va ko'ngilda vatan tutar.

Gar dil nabuvad kujo vatan sozad dil,

Var ishq naboshad, ba chi kor oyad dil.

Ma'nosi:

*Agar ko'ngil bo'lmasa, ishq qayda vatan tutar,*

*Agar ishq bo'lmasa, ko'ngil ne darkor.*

Bu o't shu'lasiga barcha a'zolarga etib, asta-sekin oshiqning ichini kuydirib, pokiza va sof etadi. Oshiq ko'ngili shunday latif bo'ladiki, nozikligidan ma'shuqning diydoriga chiday olmaydi. Ma'shuq (Oллоh)ning tajalliysidan fano bo'lish xavfi tug'ilar. Muso alayhissalom Haq taoloning diydorini istaganda bu maqomda edi. Shuning uchun Haq taolo Men senga O'zimni ko'rsatmayman, demadi, balki buyurdikim: Lan taroniy, ya'ni meni ko'rolmaysan (A'rof, 143-oyat).

Oyatning to'liq ma'nosi: "Musо Biz belgilagan vaqtda (Tur tog'iga) kelgach, u bilan Rabbi bevosita gaplashdi. Musо: "Rabbim! (O'zingni) menga ko'rsatgin, Senga bir nazar tashlay!" dedi (Oллоh). "Meni ko'ra olmaysan. Lekin (ana u) toqqa (bir) boq! Agar Men unga bir jilva qilganimda (toqat qilib) o'z o'rnida tura olsa, sen ham Meni ko'rasan", dedi. Rabbi toqqa tajalliy (kichik bir ko'rinish) qilgan edi, uni maydalab tashladi. Musо (bundan ta'sirlanib) behush holda yiqildi. Hushiga kelgach, dedi: "Senga tasbeh ayturman, Senga tavba qildim va men mo'minlarning birinchisi (peshvosidurman)".

Ey darvesh! Bu maqomda oshiq firoqni visoldan afzal biladi. Firoqdan ko'proq rohat va osoyishtalik topadi. Hamisha ichida ma'shuq bilan suhbat quradi; ma'shuq ba'zida lutf va navozishlar qiladi – unda oshiq bast maqomida bo'lur, gohida qahr va g'azab bilan azob beradi – unda oshiq qabz maqomidadir. Uni ko'rgan kishilar oshiqning qabz va bast – shodligi va xafaligiga guvoh bo'ladi, ammo buning sababini bilolmaydi.<sup>1</sup>

Ushbu holatning tavsifini hazrat Navoiyning quyidagi misralariga ham qiyos etsak, mubolag'a bo'lmas:

*Qo'yma malham tig'i zahmiga ko'ngilda, ey raviq,*

*Chiqsa jon ham chiqmasun ko'nglimdin ozori aning.*

"Oxirgi martabada, – deyiladi asarda, oshiqning ko'nglida ma'shuqa jamolidan o'ziga hech vaqo qolmas; ma'shuqaning jamoli oshiq ko'nglini butunlay zabt etar. Oshiq o'zini boshqa ko'rmas, hamma joyda ma'shuqani ko'rar. U yeb-ichayotganida ham, yotib-turishi, yurish-o'tirishida ham bularni o'zimas, balki ma'shuqa qilyapti, degan ishonch bilan yashaydigan bo'ladi. Oshiq hijron g'amidan xalos bo'lib, firoq anduhi qolmagach, ma'shuqaning jamoliga odatlanib qoladi va jasorat paydo qiladi, qo'rquvi yo'qoladi. Ma'shuqani ko'rish qo'rquvi butunlay ko'tarilgach, endi agar ma'shuqasiga duch kelib qolsa ham, boshqa iltifot qilmas va holati o'zgarmas. Chunki ko'ngilda vatan tutgan ma'shuqa endi tashqi olamdagi ma'shuqadan yaqinroqdir. Ko'ngilda vatan tutgan ma'shuqa oshiqning ko'nglini butunlay ishg'ol etib, uni mast-u mustag'raq qilmish.

<sup>1</sup> A.Nasafiy. "Komil inson" kitobidan. Olim Davlat tarjimai. Yettinchi risola, 2-fasl, [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)



Ey darvesh! Bu zaifning aqidasi shuki, ma'shuqa jamoli oshiqning ko'ngil mulkini butunlay o'z zabtiga olib, bu olamning boshqa tashvishlariga joy ham, yo'l ham qolmagandan keyin oshiq bu holatda faqat ma'shuqani ko'radi. Qachonki ikki kishi o'rtasida munosabat tug'lsa, o'shanda o'zgarish sodir bo'lar. Bu maqomda esa talab oradan ko'tariladi, firoq va visol, xavf va rajo, qabz va bast ham bo'lmaydi.

Ey darvesh! Kimki oshiq bo'lmasa, pok bo'lmaydi, pok bo'lmasa, poklikka yetishmaydi. Kimki oshiq bo'lsa-yu, ishqini oshkor etsa, pok bo'lolmas, negaki, ko'z orqali ko'ngliga yetgan ishq o'ti, til bilan chiqib ketar. Xomso'z (chala pishgan) ko'ngil yarim yo'lda qolar. Bu ko'ngil, keyinchalik, na dunyo ishiga, na uqbo ishiga, na Mavlo ishiga – hech narsaga yaramas.”

Aziziddin Nasafiyning majoziy ishqqa bergan bu tavsini oshiqning holatini batafsil namoyon etibgina qolmay, uning zamirida falsafiy ma'no mujassam etadi. Ya'ni, haqiqiy oshiq ishqni o'z qalbidan topadi. Islomda inson borliqda unga taqdim etilgan ne'matlardan bahra olib, uni qadrlay olishi mo'minlikka xosligidandir deyilib, bu uning taqdirida aks etadi. Shuning uchun ishq ham taqdirdagi ne'mat va uni pokdomonlik bilan qarshilab, yuksaklikka intilishi mo'minligidan dalolatdir. Alisher Navoiy ta'kidlaganidek:

*O'z vujudingga tafakkur aylagin,*

*Har ne istarsen – o'zingdin istagil.*<sup>1</sup>

Shuningdek, Aziziddin Nasafiyning yana bir o'rindagi quyidagi fikrlari: "...Birida o'lma-gan odam ikkinchisida tug'ilmaydi. Hordiqni istasang – ishda o'lgin, Xudoni istasang – o'zingda o'lgin".<sup>2</sup> Mushohada etadigan bo'lsak, inson borliqning eng mukammali va tiriklikning sarvari ekanligidan dalolat beradi.

Ishq esa insonlarning mukammaliga, Haq tajalliysidan siyrati va suvrati poklanib, ilmi zi-yoda bo'lgan Komiliga muyassar etadigan aziz ne'matdirki, uni bashariyat ahli hali hanuz taran-num etmoqlikdan, yangi ranglarni kashf etmoqlikdan to'xtamay kelmoqda.

**Темур Исмоилов (Наманган Мухандислик-қурилиш институти)**  
**ЁШЛАР ҲАЁТ СТРАТЕГИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА БЎШ ВАҚТ ВА ДАМ**  
**ОЛИШНИНГ АҲАМИЯТИ**

*Аннотация.* Ушбу мақолада Ўзбекистонда уюшмаган ёшларнинг ҳаёт стратегияси-ни шакллантиришда бўш вақт ва дам олишнинг аҳамиятини ижтимоий-фалсафий жи-ҳатдан таҳлил қилинган.

*Аннотация.* В данной статье анализируется социально-философский взгляд на важность досуга и отдыха в формировании единой жизненной стратегии молодежи Уз-бекистана.

Annotation. This article analyzes the socio-philosophical view of the importance of leisure and recreation in the formation of a unified life strategy of the youth of Uzbekistan.

**Калит сўзлар:** уюшмаган ёшлар, ёшлар, ёшлик, уюшган ёшлар, ёшлар муаммоси, ҳа-ёт стратегияси.

**Ключевые слова:** неорганизованная молодежь, молодежь, молодость, организо-ванная молодежь, проблемы молодежи, жизненная стратегия.

Key words: unorganized youth, organized youth, youth, youth problems, life strategy.

“Ёшлар” ёки “ёшлик” тушунчаси ҳар қандай жамиятга хос бўлган ва маълум демо-график даврларни камраб олган ўзига хос тушунча. Ҳозирги давр тадқиқотчилари ахбо-ротлар жамияти ҳисобланган янги асрда ёшларнинг ҳамма соҳа ва тармоқларда ривожла-ниб кетганлигини инкор этмаган ҳолда, мавжуд тараққиёт ўзига хос равишда социал, сиё-сий, иқтисодий, ҳуқуқий, табиийки, маънавий муаммоларни ҳам юзага келтираётганлиги-

<sup>1</sup> Huseynova A.A. Sharq mutafakkirlari dunyoqarashida umuminsoniy qadryatlar. Toshkent, 2017, 66-bet.

<sup>2</sup> Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-haqoyiq. N.Komilov tarjimasi. T., “Kamalak”, 1995, 52-bet.



## MUNDARIJA

### FIZIKA-MATEMATIKA

|                                                                                                                                |   |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| Р.Шарипов, С.Бекчанов. Устранимые особенности $\alpha$ – субгармонических функций из классов $L_{p,loc}$ и $L^1_{p,loc}$ ..... | 3 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|

|                                                                                                                                           |   |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| M.Karimov, R.Sabirov, B.Sa'dullayeva, K.Otaboyeva. Investigation of Defect InP(001) Structure by the Low Ion Scattering Spectroscopy..... | 8 |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|

### TIBBIYOT

|                                                                                                                                       |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Қ.Шукурлаев, Н.Бекова, Ш.Сафиева. Влияние нового производного тиокарбамата на болевую чувствительность и температуру тела у крыс..... | 12 |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

### FALSAFA

|                                                                       |    |
|-----------------------------------------------------------------------|----|
| С.Абдикаримова. Этноанъаналар оилани мустаҳкамлаш омили сифатида..... | 16 |
|-----------------------------------------------------------------------|----|

|                                         |    |
|-----------------------------------------|----|
| Н.Эшонкулова. Шарқ эвдомонистикаси..... | 19 |
|-----------------------------------------|----|

|                                                                                                  |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| D.Rajabova, O.Imomov. Tasavvufda ishq bayoni va mutasavvif alloma aziziddin nasafiy talqini..... | 22 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

|                                                                                            |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Т.Исмоилов. Ёшлар ҳаёт стратегиясини шакллантиришда бўш вақт ва дам олишнинг аҳамияти..... | 26 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|----|

|                                                                                                                                  |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Г.Мамажонова. Биоэтика – ахлокий танлов ва ахлокий масъулият мезонларини ижтимоий назорат қилишнинг институционал механизми..... | 30 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

### TARIX

|                                                                                                                             |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Х.Отегенов. Хива хонлиги ва амударё бўлимидаги 1916 йилги халқ кўзғолони тарихи манбашунослиги ва ҳужжатларни чоп этиш..... | 34 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

### TILSHUNOSLIK

|                                                                                                                       |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Ж.Ёқубов, Х.Рўзметов. Ҳозирги замон мантиқ илмида ҳукмнинг модаллик бўйича бўлиниши ва унинг семантик таснифлари..... | 39 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

|                                                                                    |    |
|------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Н.Омонтурдиев. Сурхондарё этнографизмлари лингвокультурологик тадқиқ кесимида..... | 45 |
|------------------------------------------------------------------------------------|----|

|                                                                |    |
|----------------------------------------------------------------|----|
| Б.Қўшкова. Ижтимоий омилларнинг тил ривожланишига таъсири..... | 48 |
|----------------------------------------------------------------|----|

|                                                                                                      |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Р.Ахророва. Социологик ва тилшунослик тадқиқотларида “ёш” ва “ёш”га оид семантикалик лексемалар..... | 52 |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

|                                                                                       |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------|----|
| M.Xolova. Boysun shevasi leksikasida uy-ro'zg'or buyumlari va oziq-ovqat nomlari..... | 55 |
|---------------------------------------------------------------------------------------|----|

|                                                                               |    |
|-------------------------------------------------------------------------------|----|
| X.Xolmurodova. Shaxs nomlarini ifodalovchi perifrazalarning shakllanishi..... | 59 |
|-------------------------------------------------------------------------------|----|

|                                                                                                    |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Л.Ахматова. Анализ пословиц и поговорок: лингвокультурный концепт «вино» во французском языке..... | 61 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

|                                                                                                                               |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Z.Jumaniyazov, S.Xusanova. Morphological Analysis of Paired Words and Reduplicative Words in English and Uzbek Languages..... | 64 |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

### ADABIYOTSHUNOSLIK

|                                                                                                  |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| M.Yuldasheva, L.Rajabboyeva. “Ikki eshik orasi” romanida kishilar ma’naviy qiyofasi tasviri..... | 68 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

|                                                                                          |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Ж.Жўраев, М.Холбеков. Саййид Хомид Тўра Комёб шеъриятида муаммо жанрининг қўлланиши..... | 71 |
|------------------------------------------------------------------------------------------|----|

|                                                                                                                  |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| U.Xolnazarov. Tog'ay Murod asarlarida qahramon ruhiyati tasviri (“Bobosi bilan nevarasi” hikoyasi misolida)..... | 74 |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

### PEDAGOGIKA

|                                                                                                                    |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Ф.Сапаева. Нофилологик таълим йўналишидаги талабалар билан “Кейс стади” технологиясида ишлашнинг афзалликлари..... | 78 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

|                                                                                                          |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| J.Ermetova, N.Rahimboeva. ESP: muayyan maqsadlarga ko'ra ingliz tilini o'rganish va uning ahamiyati..... | 81 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

|                                                                                                              |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Ж.Кенжаев, Н.Балтабаев, Ш.Эгамбердиева. Жисмоний тарбиянинг шахсни ҳар томонлама ривожлантиришдаги роли..... | 83 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|